

## O’QUVCHILAR NUTQINI O’SТИRISHDA ZAMONAVIY PEDTEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH

T.R.Allayorov

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
dotsenti, f.f.f.d., PhD

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilar nutqini o’sтиrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rnvi, ta’limning interaktiv usullari va noan’anaviy darslarning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация. В статье рассматривается роль современных педагогических технологий, интерактивных методов обучения и эффективность нетрадиционных занятий в развитии речи учащихся.

Annotation. The article discusses the role of modern pedagogical technologies, interactive teaching methods and the effectiveness of non-traditional classes in the development of students' speech.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», DTS asosida dars o‘tish umumiyligi o‘rta ta’lim, akademik litsey va professional ta’lim o‘qituvchilarini mas’uliyat bilan interfaol usullardan foydalangan holda o‘z vazifalariga yangicha yondashishga undaydi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan DTS, dastur va darsliklarning kontseptual asoslari: «Ona tili milliy ma’naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi», «Ona tili millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi «eng asosiy vosita» jumlalarini ifodalagan dastlabki bandlarida<sup>1</sup> milliy tilning ruhiy qudrati, xususiyati ta’kidlanadi. Shuningdek, ona tili ta’limi konsepsiyasida esa «Ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda ijodiylik, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat» ekani qayd etiladi.

Har bir narsani o‘rnida va kerakli miqdorda ishlatalishi ham masalaning natijasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin va to‘polon ekan deb yangi texnologiyalar butunlay tashlab qo‘yishimiz yoki faqat faollashtiruvchi usullardan foydalanamiz deb butun og‘irlikni o‘quvchiga yuklab qo‘yish yaramaydi. Bu yangi faollashtiruvchi usullar va zamonaviy texnologiyalar dars beruvchi o‘qituvchilardan nihoyatda katta mahorat, e’tibor va bilimni talab qiladi.

Milliy dastur va DTS asosida dars o‘tishda interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilarni milliy istiqlol g‘oyalarini avlodlarga sof tushunchalar orqali yetkazuvchi va o‘z ona tilini sevish, mustaqil O‘zbekistonga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash,

<sup>1</sup> Umumiyligi o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi. Toshkent: “Sharq”, 1999, 1-maxsus son.

o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilishga o‘rgatishimizga yordam beradi.<sup>2</sup>

Bunda o‘quvchilarga quyidagiga o‘xhash she’riy muammoga javob topish shartligi aytildi.

Shundayin mitti belgi,  
So‘z ma’nosin buzadi.  
Uning o‘rni o‘zgarsa,  
Yangi ma’no tuzadi. Javob: «Tutuq» belgisi

Ayting, O‘zbekistonda  
Qaysidir Davlat tili?  
Ushbu qarorni e’lon  
Qilingan qaysi yili?

Javob: O‘zbek tili, 21-oktyabr, 1989-yil

Ta’lim jarayonidagi didaktik o‘yinlar ham o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stiradi.

Ona tili talimi jarayonida davlat ta’lim standartlari belgilab bergan miqdoriy ko‘rsatkich va minimal talablarni bajarish uchun yangi pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish davr taqozosidir. Yangi pedagogik texnologiya elementlari asosidagi darslar: test sinovlari, muammoli mashqlar, qoidaga doir boshqa adabiyotlardan matnlar topish, «Ertaklar olamiga sayohat», «So‘z saltanatiga sayohat», «Mo‘jizalar maydonida» kabi o‘yinlar», «O‘yla, izla, top», «Siz ko‘p bilasizmi, biz», «Ona tilidan krossvord» kabi muammoli topshiriqlar, maqol aytish, topishmoq topish, she’r aytish, rasmga qarab hikoya tuzish, eshitgan ertakni davom ettirish, so‘z turkumlariga oid eng ko‘p so‘z aytish, terminlarni bilish va boshqalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quv yili davomida, asosan, boshqaruvchi va kuzatuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, o‘quvchilar bilimi esa reyting asosida baholanadi.

Yangi pedagogik texnologiyaning bosh maqsadi dars jarayonida o‘quvchi mavzu materiallarini oson va qulay o‘zlashtira olishi, savollarga erkin, hayotiy kuzatishlari asosida javob qaytarishiga erishishdir.

Darslarning samarali bo‘lishi o‘quvchilarning darsga butun e’tiborini jalb qilishga ham bog‘liq. O‘qituvchi buning uchun dars jarayonida o‘quvchilarning kayfiyatini yaxshilash asosida ularning fanga qiziqishlarini oshiradigan usul va vositalardan unumli foydalana bilishi zarur. Bunday holat o‘quvchilarning faolligini ta’minalashni kafolatlaydi.

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linganda yuzma-yuz turib bahs-munozaraga kirishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu imkoniyat tufayli ularda o‘z fikrini mustaqil bayon qilish, o‘zgalarning asosiy fikri bilan hisoblashish kabi xislatlar kamol topadi. Qo‘yilgan maqsadga mustaqil, faol qatnashgan holda juftlikda, yakka tartibda, guruhlar bilan yechim topishga harakat qilish o‘quvchilarda hamjihatlikda ishslash, bir-birining fikri bilan hisoblashish ko‘nikmasini xosil qiladi.

<sup>2</sup> Sobirova M. Ta’limdagি ilg’or texnologiya. Toshkent, 2003-yil, 104-bet.

O‘quvchilar teleko‘rsatuvlarda maroq bilan ko‘radigan dasturlar asosida ta’lim usullarini tashkil qilish ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, «**Meni tushun**» o‘yini.

«**So‘z turkumlari**» mavzularini mustahkamlash mashg‘ulotida darsga so‘z turkumlari nomi yozilgan, telpak kiygan mehmon-o‘quvchilar tashrif buyurishadi. O‘qitushi o‘yin sharti bilan tanishtiradi. Bunda har ikki guruhdan bittadan o‘quvchi chiqadi va bir o‘quvchi stol ustidagi qog‘ozni oladi va o‘sha qog‘ozda yozilgan so‘zni sherigiga tushuntirib berishi kerak. Agar sherigi topsa, o‘sha qog‘ozdagi so‘zni aytadi, javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlanadi.

1-o‘quvchi: - predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so‘rog‘ida javob bo‘ladigan so‘zlar...

2-o‘quvchi: - sifat.

O‘yin shu tarzda davom etadi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilarga mehmonlar ball berib borishadi.

«**Cho‘qqini zabit etaman**» o‘yinida o‘quvchilarga quyidagicha muammoli savollar beriladi.

«Kim» yoki «Nima» degan  
Savolga berar javob.  
Bu so‘z ne deb atalar,  
Shu savolga top javob?  
Javob: ega

Javoblarni tezkorlik bilan aytish shartligi aytildi. Tayyorlangan ko‘rgazmada zinalardan chiqib, cho‘qqidagi bayroqchaga chiqish tasviri berilgan. Barcha zinalar qirg‘og‘ida yuqoridagidek muammoli savol bor. Birinchi zina qirg‘og‘idagi savollarga to‘g‘ri javob bo‘lsa, bayroqcha ikkinchi zinaga olib o‘tib qo‘yiladi. Ikkinchi zinadagi savollarga tez va to‘g‘ri javob bersa, bayroqcha uchinchi zinaga olib o‘tib qo‘yiladi. Shu tariqa zinalardan asta-sekin o‘z bayroqchalarini tepaga chiqara boradilar. Zinalarning eng tepasida taxt bor. O‘yin sharti: kim yoki qaysi guruh birinchi bo‘lib savollarga to‘g‘ri va tez javob berib, o‘z bayroqchalarini taxt tepasiga olib chiqsa, o‘sha guruh yoki o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Topshiriqlarning tushunarli, qiziqtira oladigan darajada muammoli, taqqoslash va umumiylar xulosalar chiqarish mumkin bo‘lgan usullarda tuzilishi darslarning samarali bo‘lishida muhim omillardandir.

O‘quv jarayonida yuqoridagidek hayotiy, interfaol metodlarning qo‘llanilishi mustahkam bilim berish bilan birga ijtimoiy hayotda o‘ta zarur bo‘lgan hislatlar: ijodiy va erkin fikrlash, his-tuyg‘ularini boshqara olish, kuzatuvchanlik, hushyorlik, topqirlik kabi xislatlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Bugun o‘qituvchining oldiga qo‘yiladigan yagona talab tinimsiz izlanish va har bir darsga ijodkorona yondashgan holda uning san‘at darajasiga o‘tilishiga erishishdir. Bunda esa yangi pedagogik texnologiyaga asoslanib, noan’anviy dars usullaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishning ahamiyati katta.

Ona tili darslarida qo‘llanadigan yangi pedagogik texnologiya elementlari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Ulardagi faollik va tashabbuskorlik kurtaklarini rivojlantiradi.

Milliy g'oya targ'ibotida milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishiga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirish kabi ishlarni muhim hisoblanadi. Bu borada mazkur ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Yoshlar va keng jamoatchilik o'rtasida milliy g'oya targ'ibotiga joriy etilgan samarador ilmiy va uslubiy ishlarni saralash, ularni ommalashtirish.
2. Ma'naviy tarbiya, milliy g'oya targ'iboti bilan shug'ullanayotgan ziyoli, olim, pedagog va mutaxassislarining ilmiy - nazariy ishlarni, ilg'or tajribalarini ommalashtirish.
3. Joylardagi milliy g'oya targ'ibotiga mas'ul mutaxassislarining ilmiy - uslubiy faolligini oshirish.
4. Milliy g'oya targ'ibotida tarixiy merosdan foydalanish.
5. Milliy g'oya targ'ibotida davlat hamda jamoat tashkilotlari faoliyatini uyg'unlashtirish.
6. Milliy g'oya targ'iboti va tashviqotida axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
7. Dunyodagi mafkuraviy jarayonlarni o'z vaqtida tahlil qilib borish.

Yuoridagi ishlarni samarali yo'lga qo'yishda til ta'limining ham o'ziga xos o'rni bor. Ma'naviy qadriyatlarimiz haqida Birinchi Prezidentimiz shunday deydi: «Biz sharqona tarbiya ko'rganmiz, o'z odatlarimiz, an'analarimiz, o'z betakror insoniy tabiatimiz mavjud. Ayting-chi, bizdagiday rang-barang, insonparvar qadriyatlar yana qayerda bor? Andisha, muruvvat, mehr-oqibat, oriyat, ibo va hayo, mulozamat degan so'zlarni boshqa bir tilga tarjima qilish mumkinmi? Xalqimizning insoniy fazilatlarini o'zida namoyon etadigan bunday atamalarni bir-bir sanab, yuzlab misollar keltirish mumkin». Ana shunday fikrlardan kelib chiqilsa, milliy g'oyani farzandlar ongiga singdirishda ona tili ta'limi nechog'lik katta imkoniyatlarga ega ekanligi yanada ravshanlashadi. Til va millat, til va xalq, til va tafakkur borasidagi fikrlarga Birinchi Prezidentimiz to'xtalib, «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Men bu masalani alohida ta'kidlab aytayotganim bejiz emas. Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar» - deb jon kuydiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rtta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. Toshkent: "Sharq", 1999-yil, 1-maxsus son.
2. Sobirova M. Ta'limdagi ilg'or texnologiya. Toshkent, 2003-yil, 104-bet.
3. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil
4. Sobirova M.Y. Til ta'limida axborot-kommunikatsion texnologiyalar va texnik vositalar o'rni. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik jarayonni boshqarish omili» mavzusidagi ilmiy-uslubiy anjuman materiallari. Toshkent, 2009-yil,  
249-250-betlar